

Jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarlik profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish

Bugun “Yer resurslarini boshqarish” fakultetida professor-o‘qituvchilar va talaba-yoshlar o‘rtasida turli yot g‘oyalardan himoyalashning samarali uslublari va uning zararli oqibatlarini keng yoritish, talabalarning huquqiy bilimlarini oshirish, ular tomonidan huquqbuzarliklar va jinoyatlarning sodir etilishining oldini olish hamda ma‘naviy ishlar samaradorligini oshirish maqsadida huquq-targ‘ibot organlari bilan hamkorlikda tadbir o‘tkazildi. Tadbirda Toshkent shahar Yunusobod tumani profilaktika inspektori katta leytenant Sobirov Yusufjon, hamda Yunusobod tumani 1 - son IIB boshlig‘i podpolkovnik Nuriddinov Azamatjon so‘zga chiqib, bugungi kunga kelib xalqaro terrorizm, narkotrafik va odam savdosi singari transmilliy jinoyatlarning inson xavfsizligiga xuruj qilayotgani bois, ulardan jabr chekayotganlar, afsuski, ko‘pchilikni tashkil etayotganligi, hudud va chegara bilmaydigan bu jinoyatlarning har biri jamiyat taraqqiyoti va davlatlar rivojiga jiddiy xavf tug‘dirayotganligini aytib o‘tdi.

Shuningdek, yoshlarni boshqa davlatlarda kechayotgan noxush voqealar hamda tartibsizliklardan voqif etish emas, balki o‘z tinchligimizning qadriga yetish, uni har qanday tahdidlardan asrab-avaylash ekanligini ta’kidladi. Har qanday urush begunoh aholining qiyinchiliklari va iztiroblari bilan tugaydi, lekin bu kabi tartibsizliklarga ayrim kimsalar bundan faqat moddiy manfaat topish uchungina qo‘l uradilar. Biz bu tinchlikka osonlik bilan erishganimiz yo‘q shuning uchun endi uni qadrlashimiz, asrashimiz kerak va zarurligini, O‘zbekistonimizni asrash, uning tinchligini barqarorlashtirish esa yoshlarning qo‘lida ekanligi ta’kidlandi.

Shundan so‘ng barcha tadbir qatnashchilariga “Tinchlik uchun kurashmoq kerak” nomli videofilm namoyish etildi. Ushbu videofilmda Vatanimiz tinchligi va osoyishtaligini qadriga yetish, uning kelajagi bo‘lmish yoshlarni missionerlik, terrorizm, ekstremizm kabi yovuz illatlardan asrab-avaylash kerakligi ochib berildi. Videofilm talabalarda yaxshi taassurot qoldirdi hamda hushyorlikka chorladi.

Tadbir yakunida talabalarni qiziqtirgan barcha savollarga mutaxassislar tomonidan to‘liq va aniq javoblar berildi. Shundan so‘ng fakultetning yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosari H.Eshova barcha tadbir ishtirokchilariga o‘z minnatdorchiligini bildirgan holda tadbirni yakunladi.



YERB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan movini Hurriyat Eshova axboroti

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov